

O'QUVCHILARDA KITOBXONLIK MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH  
METODIKASI

Ixtiyorjonova Gulafshon Bunyodjonovna

Farg'ona davlat universiteti filologiya fakulteti tojik tili yo'nalishi 3-bosqich talabasi  
ixtiyorjonovag@gmail.com

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada o'quvchilarda kitobxonlik madaniyatini shakllantirishning pedagogik asoslari va metodik yondashuvlari tahlil qilinadi. Kitob o'qishga bo'lgan qiziqishni rivojlantirish, badiiy tafakkurni shakllantirish hamda mustaqil mutolaa ko'nikmalarini hosil qilishning muhim jihatlari yoritilgan. Shuningdek, kitobxonlik madaniyatini rivojlantirishga xizmat qiluvchi omillar ilmiy asosda bayon etiladi.

**Kalit so'zlar:** kitobxonlik madaniyati, mutolaa, badiiy tafakkur, mustaqil o'qish, pedagogik yondashuv, adabiyot darsi, o'quvchi

**Аннотация:** В данной статье рассматриваются педагогические основы и методические подходы к формированию культуры чтения у учащихся. Освещаются вопросы развития интереса к чтению, формирования художественного мышления и навыков самостоятельного чтения. Также анализируются факторы, влияющие на развитие читательской культуры.

**Ключевые слова:** культура чтения, чтение, художественное мышление, самостоятельное обучение, педагогический подход, урок литературы, ученик

**Abstract:** This article analyzes the pedagogical foundations and methodological approaches to developing reading culture among students. It highlights the importance of fostering interest in reading, developing literary thinking, and forming independent reading skills. The factors influencing the development of reading culture are also discussed.

**Keywords:** reading culture, reading, literary thinking, independent learning, pedagogical approach, literature lesson, student

So'nggi yillarda ta'lim sohasiga juda katta e'tibor qaratilyapti. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev "Yangi O'zbekiston strategiyasi" kitobida "Ayni paytda islohotchi bo'lib maydonga chiqadigan, strategik fikr yuritadigan, bilimli va malakali yangi avlod kadrlarini tarbiyalashimiz zarur. Shu boisdan ham bog'chadan boshlab oliy o'quv yurtigacha - ta'limning barcha bo'g'inlarini izchil isloh qilmoqdamiz", deya ta'kidlaydi. Islohotlar xalq ta'limi tizimida ham jadallik bilan olib borilmoqda. Bu jarayonda oila va maktab hamkorligi har qachongidan muhimdir.

Jamiyatimizda kitobxonlik masalasiga yondoshuv turli davrlarda turlicha bo'lgan. Har bir davrning o'z ehtiyojidan kelib chiqib, kitobxonlik darajasi belgilangan. Biroq, keyingi davrlarda kitobxonlik masalasi Davlatimizning asosiy ustivor vazifalariga aylanib ulgurdi. Ayniqasa, butun dunyoda raqamli texnologiyalarning keng rivojlanganligi, barcha sohalarni keng qamrab oldi.

Binobarin, har qanday davlatning kuch-qudrati o'z fuqarolarining ongliligi bilan belgilanar ekan, bunda albatta kitobxonlik masalasiga alohida e'tibor berilgan.

Bugungi kunda "Mutolaa madaniyati", "Kitobxonlik madaniyati", "O'qish madaniyati" kabi atamalar bilan qo'llanilib kelayotgan ijtimoiy hodisalar axborot olish madaniyatining tarkibiy qismlari sifatida bir qator ilmiy o'rganishlar olib borilgan.

Bugungi kunda farzandlarimizning yoshligidanoq mutolaaning darajalarini shakllantirib borish lozim. Bola oilada shakllanishini hisobga oladigan bo'lsak, kitobga bo'lgan mehr, qiziqishni oilada shakllantirish lozimligini inkor etib bo'lmaydi. Oilada, mahallada yoshlarni kitob o'qishga qiziqtirish uchun, avvalo, kitobxonlikning ahamiyatini tushuntirish kerak bo'ladi. Yoshlarning qalbida kitob o'qishga kuchli havas uyg'otish zarur. Qanday qilib? Buning uchun ulug' alloma bobolarimizning kitob haqida aytgan durdona fikrlarini yoshlarning ong-u shuuriga singdirish kerak. Masalan, S.Dekonning tomonidan berilgan fikricha, "Kitob zamona dengizida sayohat qilayotgan va o'zining qimmatbaholigini avlodlardan avlodlarga tashiyotgan hikmat kemasidir". Hikmat kemasidan – kitobdan mehnatsevarlik, odamgarchilik, yaxshi hayot kechirish, boy yashash sirlari, halollik, to'g'rilik kabi insoniy fazilatlarni o'rganadi. Demak, hayot dengizida maqbul kitobni topib o'qish o'ziga manfaat olib keladi. Ayniqsa, Rene Dekartning: "Kitoblar dunyodan o'tgan dohiylar bilan uchrashtiradi", – deb aytgan so'zi oldimizda juda ko'p imkoniyatlar borligini ta'kidlab turibdi<sup>2</sup>. Kitob – bilim manbai. Kitob mutolaasi esa insonni hayoti davomida mukofot bilan taqdirlovchi sharafli mehnatdir. Bu borada farzandlarda kitob mutolaasiga mehr uyg'otishda oila muhim ahamiyat kasb etadi. Kitob haqida bu dunyoda o'z nomini muhrlab ketolgan qator adib va ulamolarimiz ajoyib fikrlar tasniflab ketgan.

O'quvchilarda kitobxonlik madaniyatini shakllantirish bugungi ta'lim tizimining dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi. Kitobxonlik nafaqat bilim olish vositasi, balki shaxsning ma'naviy-axloqiy kamolotini ta'minlovchi muhim omildir. Shu sababli adabiyot darslarida o'quvchilarni muntazam mutolaa qilishga yo'naltirish, ularda kitobga nisbatan qiziqish va ehtiyojni shakllantirish ustuvor yo'nalish sifatida qaraladi.

Ta'lim-tarbiya jarayonida tom ma'noda davr talabiga mos haqiqiy vatanparvar, salohiyatli, dadil yoshlarni, g'oyaviy-mafkuraviy va intellektual jihatdan yetuk kadrlarni tayyorlashda, zarur ma'naviy ehtiyojlarni qondirishda adabiyot darslarining insonshunoslik, ruhshunoslik, axloqshunoslik sifatlari to'la namoyon bo'ladi. Bolalar kitobxonligini shakllantirishda maktab hamda ota-onalar zimmasiga nihoyatda murakkab va mas'uliyatli vazifa yuklanadi.

Buning uchun ota-onalarning o'zi ham yuksak didga ega va ma'rifatli va bilimli bo'lishlari kerak. Ma'lumki, bola kitob o'qishni bilgan taqdirdagina, kitob uning ma'naviy hayotida muhim rol o'ynaydi. Kitob bolaning ma'naviy boyishi uchun uni 20 ma'naviy, aqliy, estetik o'sishga yo'llashi zarur.

Buning uchun dastlabki turtki oilada bolaga o'qib berilgan birinchi kitob bo'lsa, ikkinchisi, bola otasi va onasining o'qishini eshitib, badiiy obrazlar go'zalligini tasavvur qilishi, kitob bilan ana shu birinchi va ikkinchi uchrashuv bolaning keyingi o'smirlik davrida uning ma'naviy hayotining barcha sohalari: mehnat, o'yin, musiqa, bolalar ijodi bilan bog'liq bo'lib, uni hayotining hamma tomonlarini qamrab olishi zarur.

Chunki, o'smir hayotini ijodiy mehnat, ertaklar olami, fantaziyalar, o'yin va musiqasiz tasavvur etish qiyin. Bularning barchasini kitobxonlik ham qamrab olsa, uning hayoti mazmunsiz, voqea-hodisalarning tub mohiyatini anglab olishga harakat qiladigan, turmush ziddiyatlarini tushunadigan aql-zakovatli ma'nan barkamol shaxs bo'lib yetishishiga yordam beradi.

Ta'lim jarayonida o'quvchi ham, o'qituvchi ham bevosita kitob mutolaasiga ehtiyoj sezadi. Bu quvonarli, albatta. Lekin hozirgi kunda o'quvchilar asosan ilmiy adabiyotlar, darslik va qo'llanmalardan foydalanayotganlari bois badiiy asarlar mutolaasiga vaqt ajratishga imkoniyatlari cheklanyapti. O'quvchi faqat adabiyot darsida o'qituvchi bergan vazifani bajarish uchungina badiiy asarlarni qo'lga olyapti. Natijada esa ma'lum: mutolaa jarayoni sevimli mashg'ulot emas, majburiyatga aylanib qoladi. Kitob mutolaasiga havasi bolalikdan paydo bo'lmagan o'quvchi keyinchalik berilgan katta hajmli asarlarni o'qishga kuch topolmaydi, ishtiyoq sezmaydi, xohish bildirmaydi, faqat darslikda berilgan qisqartirilgan parcha bilangina tanishadi va yozuvchining butun asar mazmuniga singdirib yuborgan pafosini, g'oyaviy-badiiy maqsadini to'la anglolmaydi.

Kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish jarayoni, avvalo, o'quvchilarning yosh va individual xususiyatlarini hisobga olgan holda tashkil etilishi lozim. Boshlang'ich bosqichlarda sodda, qiziqarli va mazmunan boy asarlarni tanlash muhim bo'lsa, yuqori sinflarda murakkabroq, falsafiy va tahliliy xarakterga ega bo'lgan asarlarga murojaat etish maqsadga muvofiqdir. Bu esa o'quvchilarning bosqichma-bosqich kitobxonlik ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Adabiy asarlar bilan ishlash jarayonida o'quvchilarni faqat matnni o'qishga emas, balki uni anglash, tahlil qilish va baholashga o'rgatish muhim ahamiyatga ega. Bunda o'quvchilar asar mazmunini qayta hikoya qilish, asosiy g'oyani aniqlash, qahramonlarga baho berish va voqealarga shaxsiy munosabat bildirish orqali faol fikrlashga jalb etiladi. Natijada ularning mantiqiy va obrazli tafakkuri rivojlanadi.

Shuningdek, kitobxonlik madaniyatini shakllantirishda o'qituvchining shaxsiy namunasi muhim rol o'ynaydi. O'qituvchining kitobga bo'lgan munosabati, mutolaa jarayoniga jiddiy yondashuvi o'quvchilarga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu bois o'qituvchi o'quvchilar uchun ma'naviy yetakchi sifatida namuna bo'lishi lozim.

Kitobxonlikni rivojlantirishda sinfdan tashqari o'qish ishlarini samarali tashkil etish ham muhimdir. Turli adabiy kechalar, mutolaa tanlovlari, kitob taqdimotlari va muhokama mashg'ulotlari o'quvchilarning kitobga bo'lgan qiziqishini oshiradi. Bunday tadbirlar orqali o'quvchilar o'qigan asarlari yuzasidan fikr almashadi, bu esa ularning nutq madaniyati va muloqot ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Bundan tashqari, zamonaviy axborot vositalaridan oqilona foydalanish ham kitobxonlik madaniyatini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Elektron kutubxonalar, audiokitoblar va turli ta'lim platformalari orqali o'quvchilar uchun keng imkoniyatlar yaratiladi. Bu esa ularning kitob o'qishga bo'lgan qiziqishini yanada oshiradi va mutolaa jarayonini qulaylashtiradi.

Umuman olganda, o'quvchilarda kitobxonlik madaniyatini shakllantirish tizimli, izchil va maqsadga yo'naltirilgan pedagogik faoliyatni talab etadi. Mazkur jarayonni to'g'ri

tashkil etish orqali o'quvchilarning nafaqat bilim darajasi, balki ularning ma'naviy dunyosi va intellektual salohiyati ham yuksaladi.

Xulosa qilib shuni aytish lozimki, kitobxonlik - bu insonning o'z ustida ishlashi, faoliyatini ma'lum yo'nalishga burib yuborish, ongida ma'lum tuyg'ularni, e'tiqod va dunyoqarashni hosil qilish, uni o'ylashga, hayotda qanday yashashga o'rgatish, fikr yuritish, yozuvchining insonparvarlik, axloqiy, estetik, badiiy, fuqarolik nuqtai nazarini bilib olish, uning ma'naviy o'g'itlarini ilg'ab olish va bular asosida o'z hayot yo'li dasturini belgilash, yozuvchi bilan munozaraga kirishish, har bir o'qigan kitobidan yangilik topish, ma'naviy dunyosini boyitishdan iboratdir. Haqiqatan ham kitobxonlik insonni barkamollikka yo'llasa, uni o'qimaslik, johillikka, ma'rifatsizlikka olib kelib, natijada ma'naviy bolada qashshoqlik yuzaga keladi. Maktabda, oilada muhim vazifa - kitobxonlikni inson hayotida zaruriyatga aylantirishdan iborat. Agar kitobxonlik zaruriyatga aylanmasa, oilada ham, maktabda ham unga mehr-muhabbat, e'tibor kuchaytirilmasa, farzandni kitobga bo'lgan munosabatini o'zgartirish mumkin emas.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 14 dekabrda "2020-2025 yillarda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish va qo'llab-quvvatlash milliy dasturini tasdiqlash to'g'risida" gi 781-sonli Qarori .

2. G'anieva D.A. Axborot-kutubxona muassasalarida kitobxonlarni a'naviy-axloqiy tarbiyalashda madaniy-ma'rifiy tadbirlarning roli -T.: "Tafakkur" nashriyoti, 2017.-440 b

3. Khamidov O. (2018). "Ta'lim va tarbiyada innovatsion yondashuvlar". Toshkent: O'zbekiston Milliy Universiteti nashriyoti.

4. Raxmatov Sh. (2019). "Kasbiy ta'limni tashkil etishning metodik asoslari". Samarqand: Samarqand davlat universiteti nashriyoti.

5. To'xliyev B.. Adabiyot o'qitish metodikasi. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2010.

6. Azizxo'jayeva N. N.. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. – Toshkent: TDPU, 2014.

7. Ishmuhamedov R.. Ta'limda innovatsion texnologiyalar. – Toshkent: Fan, 2016.